

## BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA ULARNING KASBIY MOBILLIGINI SHAKLLANTIRISH KOMPONENTLARI

A. Turabov

Jizzax politexnika instituti professional ta'lif kafedrasi katta o'qituvchisi  
E-mail: [anvarturabov20@gmail.com](mailto:anvarturabov20@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lif muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashning alohida uslubiy yondashuvi sifatida talabalarda kasbiy mobillikni shakllantirish komponentlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** mutaxassis, kasbiy mobillik, kreativlik, kompetentlik, mas'ullik, kasbiy – adaptiv, kognitiv – kompetentli, o'z – o'zini faollashtiruvchi, motivatsion – faoliyatli, qadriyatli, komponent.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье компоненты формирования профессиональной мобильности студентов предлагаются как особенный методический подход к подготовке будущих специалистов в образовательных организациях.

**Ключевые слова:** специалист, профессиональная мобильность, креативность, компетентность, ответственность, профессионально-адаптивный, когнитивно-компетентный, самоактивирующий, мотивационно- активный, ценностный, компонент.

### ABSTRACT

In this article, the components of the formation of professional mobility of students are proposed as a special methodological approach to the training of future specialists in educational organizations.

**Keywords:** specialist, professional mobility, creativity, competence, responsibility, professional-adaptive, cognitive-competent, self-activating, motivationally active, value, component.

Beqaror va shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo mehnat bozoridagi raqobat muxitida kasbiy rivojlanish insoniyatning nafaqat kundalik hayot faoliyatida, balki, davlatlararo o'zaro munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda har bir davlatda, jamiyatda shaxsni, umuman insoniyatning samarali kasbiy ta'lif extiyojini professional asosda tashkil etish muxim ahamiyatga ega, bu esa

davlatning ta’lim sohasidagi oqilona siyosati, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayorgarligi hamda ularni tayyorlash tizimida zaruriy o‘zgarishlarning shartligini talab etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy kompetentligiga, balki ularning shaxsiy-professional va ijtimoiy ahamiyatga ega hususiyatlariga ham alohida talablar qo‘yiladi. Ulardan asosiyлari quyidagilar hisoblanadi: intellektual darajani yuksaltirishga intilish, kreativlik, o‘z faoliyati natijalari uchun mas’ullik, kasbiy faoliyatdagi tezkorlik, ma’naviy-ahloqiy printsipiallik, faol hayotiy pozitsiya va boshqalar.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan va murakkablashayotgan professional-texnologik muhit sharoitlarida jamiyatning kasbiy sohalaridagi o‘zgarishlarga tayorligi sifatida kasbiy rivojlanishga aloqador zaruriy shaxsiy sifatlardan biri bu - shaxsning kasbiy mobilligidir. Aynan shuning uchun kasbiy mobil kadrlarni tayyorlash, jamiyatning oliy ta’limga bo‘lgan dolzarb ijtimoiy buyurtmasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy mobillikni biz shaxsning kasbiy moslashuvchanlik bilan, yaqqol bilish faoliyati va kasbiy kompetentlik bilan, shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini amalga oshirish bilan, kasbiy harakatlarga va ijtimoiy mas’uliyat bilan, kasbga qadrlı munosabat va kasbiy soxadagi o‘zgarishlarga, hayot faoliyati sharoitlarini buzuvchi favqulotda holatlardagi faoliyatga tayyorligi va qodirligini nazarda tutish bilan ifodalangan integrativ xususiyat sifatida belgilaymiz.

Kasbiy mobillik funktsiyalariga biz ijtimoiy, tizimli-kasbiy va shaxsiy funktsiyalarni kiritishimiz mumkin. Ijtimoiy funktsiyani amalga oshirish mutaxassislar tayyorlash soxasini insonlarning hayoti va farovonligiga xizmat qiluvchi egiluvchan va adekvat munosabat bildirishga qodir kasbiy mobil kadrlar bilan ta’milagan holda, jamiyatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan. Tuzilmaviy kasbiy funktsiyaga ko‘ra kasbiy mobillik jamiyatning kasbiy – mehnat soxasini, kasbiy soxada ijtimoiy mas’uliyatli gorizontal va vertikal siljishlarga yo‘naltirilgan kadrlarni tayyorlash hisobiga, uzlusiz rivojlanishiga yordam beradi. Shaxsiy funktsiyani amalga oshirish, mutaxassisni zamonaviy beqaror, shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda moslashish va o‘zini – o‘zi amalga oshirish uchun ta’lim va kasbiy sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Shundan kelib chiqib, biz kasbiy mobillikning komponentlarini belgiladik: kasbiy – adaptiv komponent, kognitiv – kompetentli, o‘z-o‘zini faollashtiruvchi, motivatsion – faoliyatli, qadriyatli.

**Kasbiy – adaptiv komponent.** Kasbiy mobillikning birinchi komponenti insonni o‘zgarayotgan jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sharoitlarda, shuningdek, individual hayotiy vaziyatlarda kasbiy moslashishni ta’minlaydi. U bevosita mutaxassis tomonidan metodologik jixatdan kompetentli yondashuv asosida qurilgan

ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonida o‘zlashtirgan umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarga asoslanadi.

Ta’lim standartlarida nazarda tutilgan kompetentsiyalarni o‘zlashtirish talabalarda bir kasbiy faoliyatdan boshqasiga qayta moslashishga tayyorligini, zarur bo‘lganda kasbiy faoliyat yoki kasb turini o‘zgartirish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni shakllanishini ta’minalaydi.

Shakllanayotgan kasbiy kompetentlikning bunday yo‘naltirilishi o‘quvchilarning shaxsiy tuzilishda moslashuvchanligini shakllantirishga va mustahkamlashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkillashtirishning maxsus shakllari, metodlar va vositalarni tizimli amalga oshirish hisobigagina mumkin.

**Kognitiv - kompetentli komponent.** Ta’limni mobililikni shakllantirishga qaratilishi o‘quvchilarni o‘quv materialini, fanlarni bo‘lajak kasbiy bog‘liqlikni anglamasdan ba?osiz yodlash kabi reproduktiv o‘zlashtirishdan voz kechishni talab qiladi. Belgilangan didaktik maqsadlarga erishish ba’zi o‘quv ma’lumotlar majmuini pedagog tomonidan namoyish etish va talabalar tomonidan ijro etishni emas balki o‘?uvchilarning faol bilish faoliyatini va bilimlarni o‘quv jarayonida mobililikni ko‘rsatish sifatida mustaqil o‘zlashtirishni nazarda tutuvchi shakl va uslublardan foydalanishni anglatuvchi faol ta’lim texnologiyalarini va metodlarni qo‘llashni ta’minalaydi.

Boshqacha aytganda, ta’limning faol usullari – bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy jixatdan doim takomillashishga qodirligi va tayyorligini, ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy shaxsiy xususiyat bo‘lgan bilish faolligini shakllanishiga yordam beradi. Aniq bilish faolligi, kasbiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga intilish, kasbiy kompetentsiyalarni shakllangan tizimi kasbiy mobililikning ikkinchi komponentini tashkil qiladi.

**O‘z-o‘zini faollashtirish komponenti.** Kasbiy mobililikning bu qismi insonning, unga faoliyatdan qoniqish hissini ta’minlovchi, o‘z qobiliyatini namoyish etish va rivojlantirishga, o‘z kasbiy faoliyat doirasida turli hayotiy rejalarini amalga oshirishga imkon beruvchi, shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish darajasida namoyon bo‘ladi. Shunisi aniqki, kasbiy mobililik shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirishni namoyon etish sifatida inson hayotida uning ertangi kunga ishonishida ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik omili sifatida namoyon bo‘lgan muvaffaqiyatli kasbiy adaptatsiyasiz imkonsizdir. Shunga qaramasdan, kasbiy mobililik bu darajada bir qator xususiyatlarni shakllanganligini talab qiladi. Ulardan asosiyalar mustaqil faoliyatning bilim va ko‘nikmalari, refleksiya, kreativlikdir.

**Motivatsion – faoliyatli** komponent tanlagan kasbiy faoliyatga yo‘naltirilganlikni, muammoli vaziyatlarda va noaniqlikda professional yechimni qabul qilishga qodirlilikni va tayyorlikni, o‘z kasbiy harakatlariga yuqori ijtimoiy

mas'uliyatni anglashni nazarda tutadi. Ijtimoiy mas'uliyat shunda namoyon bo'ladiki, bunda inson kasbiy adaptatsiya va shaxsiy o'z-o'zini anglash jarayonlarini amalga oshirayotib, har doim qilingan kasbiy tanlov uchun o'z mas'uliyatini anglaydi, o'z kasbiy harakatlari, ish soxasida ularning ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy mazmuni nuqtai nazaridan o'z faolligini baholay oladi. Ta'limga soxasidagi ijtimoiy mas'uliyat – ta'limga o'qitishga faol yondashuvga asoslangan turli shakllarida kasbiy mobillikni maqsadli shakllanishini ta'minlaydi.

**Qadriyatli komponent** qadriyatli yo'naliishlarga, kasbiy faoliyatning jarayon sifatida va shaxsiy ahamiyatli natijaning aksilogik ma'nosiga tayanadi.

Kasbiy mobillikning aksilogik tarkibi yetakchi kasbiy qadriyatlar bilan ta'minlanadi. Ta'limga jarayonida qadriyatlarni shakllanishi, pedagogik faktlarda chuqur ma'noga ega bo'layotgan va o'quv amaliyotida keng qo'llanilayotgan aksilogik yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kasbiy mobillikning shakllanishi ta'limga muassasalarining maxsus o'quv muxitida ta'limga jarayoni sub'ektlari (talabalar, o'qituvchilar, tyutorlar) ning o'zaro ta'sir etish jarayonida amalga oshiriladi. Oliy ta'limga tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarining kasbiy mobilligining shakllanishi faqatgina o'quv jarayoni doirasida chegaralanib qolmaydi. Shuni alohida ta'kidlash joyizki, bu faoliyatni tizimli amalga oshirishida ko'p jixatdan ta'limga jarayonining umumiy tashkil etilishi, ta'limga olib boriladigan muassasasining ta'limga muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Н.О. Вербицкая, Формирование профессиональной компетентности ориентации и адаптации на рынке труда в процессе подготовки квалифицированного специалиста/ Образование и наука: Известия Уральского отделения Российской академии образования. – 2004.
2. Ю.И. Биктуганов, Профессиональная мобильность педагога [Текст]: учеб. пособие/ Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург [б. и.], 2016.
3. А. Турабов, Texnika yo'naliishidagi bo'lajak mutaxassilarning kasbiy mobilligini shakllantirish omillari. “Ta'limga uzluksiz kasbiy rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi roli, joriylanish masalalari: maqsad va vazifalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami/ QVXTXQT va MO hududiy markazi. 2022 y.
7. Азизов, О. Э. (2023). Педагогика коллежида таҳсил олаётган мактабгача таълим ташкилоти бўлажак тарбиячиларида коммуникатив компетенцияни ривожлантириш компонентлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 390-393.

8. Азизов, О. (2022). Педагогика коллежи ўқувчиларининг коммуникатив компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантаришда инновацион ёндошув. Innovations in primary education, (1).
9. Alikulov, S. T., & Azizov, O. E. (2021). The Structure and Content Of The System for the Formation of Communicative Competencies of Future Teachers. Current Research Journal of Pedagogics, 2(06), 141-151.
10. Azizov, O. (2021). Ўқувчилар каммуникатив компетенциясини “Санъат” фанларини ўқитиш жараёнида шакллантириш ва ривожлантариш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(Архив№ 3).
11. Alikulov, S. T. (2020). Mechanisms of implementation of interdisciplinary relationships between public education and vocational sciences. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 524-526).
12. Azizov, O. E. (2022). Turabov AM The Importance of Approaches and Trends in the Development of the Components of Communicative Competence. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 124-126.
13. Azizov O.E., Pedagogika kolleji o‘quvchilariga kommunikativ kompetensiyalarning tarkibiy qismlari. Namangan davlat universiteti – ilmiy axboratnomasi. OAK Jurnal. 2021y.11.02 (2-son)
14. Azizov, O. E. (2022). Bo‘lajak tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyalarini o‘quv-ilmiy jarayonlarda rivojlantirish. Science and Education, 3(12), 693-702.
15. Azizov, O. (2022). Pedagogika kolleji o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion yondoshuv. Boshlang‘ich ta’limda innovatsiyalar, (1).
16. Azizov, O. Pedagogika kollejida tahsil olayotgan muktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish komponentlari. Educational Research in Universal Sciences (ERUS)